

SHAXS VA FAOLIYAT

Yuldasheva Sojida Zoyirovna
O'zMU Jizzax filiali "Oila psixologiyasi"
kafedrasi o'qituvchisi
Abduraxmonova Kumush Shuhrat qizi
Norboyeva Ziyoda Djurayevna
O'zMU Jizzax filiali talabalari

Tayanch tushunchalar: faoliyat, faollik, harakat, faoliyat tuzilishi, malaka, ko'nikma, malakalarni egallash, odatning shakllanishi.

Faollik (lotincha "actus" - harakat, "activus" - faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Faollik negizida paydo bo'luvchi o'zgacha sifatni, o'ziga xoslikni egallagan hatti – harakatni yuksak ko'rinishi, faqat insongagina taalluqligi orqali u psixologiya fanida faoliyat deb nomlana boshlandi. Faoliyat faollikning shaxsga xos turi sifatida vujudga keladi.

Inson faoliyatga yo'naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo'lda harakat qilishi tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o'z oldida to'rgan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida u yoki bu amalni bajaradi. Biron matnni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va so'zlarni teradi, so'ngra ma'lum ma'no anglatuvchi matn paydo bo'ladi.

Psixologiyada faoliyatning alohida bir xususiy vazifasini bajarishga mo'ljallangan, nisbatan tugallangan qismi (unsuri), tarkibi harakat deb nomlanadi.

Faoliyat tarkibiga kiruvchi sa'yi-harakatlar tizimi oxir-oqibatda mazkur harakatning maqsadi bilan nazorat qilinadi, baholanadi va to'g'irlab turiladi. Maqsad miyada faoliyatning bo'lg'usi mahsulasi timsoli, o'zgaruvchan andazasi tarzida vujudga kelishi mumkin.

Faoliyatning barcha turi odamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan amalga oshiriladi.

Faoliyatning o'ziga xos dastlabki xususiyati shundaki, aktivlikning manbai bo'lgan faoliyat aktivlikni yaxshi anglab olingan maqsad bilan boshqariladi. Faoliyat voqeelikka bo'lgan aktiv munosabatning shunday formasiki u orqali odam yashab turgan olam bilan odam o'rtasida real aloqa o'rnatadi. Odam faoliyat vositasi bilan tabiatga narsalarga boshqa kishilarga ta'sir qiladi. Yukning og'irligini aniqlash uchun uni ko'tarib ko'rish kerak edi, atom bombasining kuvvatini namoyon qilish uchun esa

uni portlatib ko'rish kerak edi. Galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan ana shunday har bir nisbatan tugallangan faoliyat elementi amaliy ish deb yuritiladi.

Faoliyatning asosiy turlari.

Har qanday faoliyat tarkibiga ham aqliy, ham jismoniy motor harakatlar mujassam bo'ladi. Aqliy harakatlar-shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Pertseptiv, ya'ni bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi; Mnemik faoliyat - narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog'liq murakkab faoliyat turi; fikrlash faoliyati—aql, fahm farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat;

Inson shaxsining shakllanishi o'yin, ta'lim, mehnat, sport va boshqa faoliyatning turlarida amalga oshadi. Faollik tufayli faoliyatni amalga oshirish jarayoni yuzaga keladi, xulq-atvor, muomala vositasida ehtiyoj, istak, ijtimoiy talablar qondiriladi, turli xususiyatli axborotlar o'zlashtirilishi natijasida shaxs tarkib topa boshlaydi.

1. O'yin foyiati. Faoliyatning oddiy shakllaridan biri o'yin hisoblanadi, lekin u toboro takomillashib, sodda harakatlardan keyinchalik syujetli, rolli o'yinlarga, atrof-muhitni aks ettirishida ishtirok eta boshlaydi. O'yinlar milliy (etnik) va umumbashariy turkumlardan tarkib topgan bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini o'zida aks ettiradi. O'yinlar takomillashib borib sport turlariga, sport faoliyatiga o'sib o'tadi, jumladan, shaxmat, damino, futbol, shashaka va hokazo. Sport o'yin faoliyati sifatida barcha yoshdagi insonlarga xos bo'lib hisoblanadi.

O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikning taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo'sinda atrof-muhit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali idrok qiladi. So'z bilan harakatning birikuvi natijasida o'yin faoliyat tusini oladi va muayyan ma'no, axborot berish, kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastlabki o'yin aynan kattalar hatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Syujetli o'yinlar borliqning goh anglangan, goho mujassamlashtiradi.

Bolalar o'yinlarining dastlabki ilmiy tahlili rus olimi Ye.A.Pokrovskiy tomonidan 1887 yilda amalga oshirilgan. Uning fikriga ko'ra, "o'yin" to'g'risidagi tushunchalar o'ziga xoslikni va tafovutni u yoki bu xalqqa mansublikni bildiradi.

2. Ta'lim. Ta'lim ham jarayon, ham faoliyat sifatida insonning hayotida muhim rol o'ynaydi va muayyan davr uchun yetakchi faoliyat sifatida gavdalanishi mumkin. Ta'lim boshqacha so'z bilan aytganda, o'qituvchi bilan o'quvchining subyekt-subyekt munosabatidagi hamkorlik faoliyati hisoblanadi. Aksariyat hollarda o'qituvchi axborot

uzatuvchi (kommunikator), o'quvchi esa uni qabul qiluvchi obyekt sifatida talqin etiladi, ikkiyoqlama harakat tufayli ma'lumot insonga anglashiniladi, o'zaro ta'sir, o'zaro anglashuv, tushunuv, o'zaro subyektlarning bir-biriga zaruriyigi, taqozochanligi hamkorlikning muvaffaqiyati kafolati sanaladi. Ta'lim o'quv faoliyati, aqliy faoliyat, bilish faoliyati turtkisi vazifasini o'taydi, chunki har qaysi faoliyatning shakli aqliy mehnat tufayli amalga oshadi. Ta'limning boshqa faoliyat turlaridan farqi uning mahsulining o'ziga xosligi, barcha bosqichlariga ongli yondashuvida va munosabatda bo'lishdir. Ta'lim o'quv faoliyati yoki jarayon sifatida mustaqil izlanishni, ijodiy munosabatni, turli vaziyat (auditoriya va undan tashqarida)ni, har xil bosqichni (boshlang'ich, o'rta, maxsus, oliy ta'lim) o'zida mujassamlashtiradi. Mustaqil bilim olish va mutola qilish ham o'quv faoliyatining muayyan ko'rinishlari bo'lib, shaxsiy, ilmiy, ijodiy izlanishning mahsuli hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya bilan uyg'unlashgan tarzda namoyon bo'ladi, subyektga obyektiv ta'sir o'tqazish tufayli bilimlar egallanadi, muayyan shaxsiy fazilatlar tarkib topadi. Ta'limning mohiyatiga (matnda g'oya, taassurot, mazmun, syujet, timsol orqali) tarbiyaviy ta'sir o'tkazish dasturi asosda, iyerarxik (yunoncha hierarchia - izchillik) tarzda singdiriladi. Ta'lim muayyan guruh va jamoani shakllantiradi, shaxslararo munosabat maromlari bilan tanishtiradi, shaxsiy fazilatlarining tarkib topishiga, subyektning ijtimoiylashuviga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

3. Mehnat faoliyati. Insoniyat o'zining mehnati tufayli ongli mavjudotga aylangan, jamiyatda mo'l-ko'lchilikni yaratgan, tabiatda esa ayrim o'zgartirishlarni amalga oshirgan, borliq to'g'risidagi ma'lumotlarni egallashga musharraf bo'lgan. Mehnat faoliyatining tarkibida mehnat, ish – harakat yotadi. Ularning har qaysisi muayyan ulushni amalga oshirish tufayli faoliyat mahsuli vujudga keladi, u moddiy yoki ma'naviy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kasb – kor ko'nikmalarini avlodlarga o'rgatish mehnat faoliyati yordamida amalga oshiriladi. Kasbiy malakalarni shakllantirish, takomillashtirish, maxsulot yaratish va undan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish mehnat faoliyati orqali ro'yobga chiqariladi. Mehnat faoliyatida amaliy ko'nikmalar barqarorlashadi, nazariy fikr, g'oya, mulohaza vujudga keladi. Faoliyat bilan ong birligi mavjud bo'lganligi sababli shaxs tarkib topadi, ham axloqan, ham aqlan rivojlanadi. Mehnat faoliyati individual xususiyat kasb etsada, lekin uning mohiyati ijtimoiydir. Inson shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun mehnat qiladi, u yoki bu mahsulot ishlab chiqariladi, oqibat natijada odam ijtimoiy jamiyat farovonligi uchun o'z shaxsiy ulishini qo'shadi.

Mehnat faoliyati yashash, ehtiyojni qondirish, kelajak uchun mo'l-ko'lchilik vujudga keltirish uchun, yaratilgan mahsullarni (me'morchilik, san'at, madaniyat asarlarini) saqlash, asrash, meros sifatida qoldirish funksiyalarini bajaradi. Shuning uchun mehnat faoliyati 10 minglab kasbkor professiogrammasiga asoslangan holda

turli shaklda tashkil qilinadi va muayyan reja, maqsadni ro'yobga chiqarish uchun har xil vaziyatlarda amalga oshiriladi.

Faoliyatning istalgan turi odamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan amalga oshiriladi. Faoliyatning tuzilishi quyidagilardan iborat bo'ladi.

1. Maqsad (vazifa).
2. Ishni rejalashtirish.
3. Ishni bajarishning eng ma'qul usulini tanlash.
4. Ishni amalga oshirish.
5. Ishning natijalarini tekshirib chiqarish.
6. Xatolarni tuzatish.
7. Ishga yakun yasash.

Faoliyatda insonning shaxsi ifodalanadi va shuning bilan birga, faoliyat odamning shaxsini tarkib toptiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla, Sharafitdinov, and Yuldasheva Sojida Zoyirovna. "ZAMONAVIY AXBOROTLASHTIRISH JARAYONLARINING SHAXS INDIVIDUAL XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 432-436.
2. Zoirovna, Yuldasheva Sojida, and Nizomov Bekhruz Umarovich. "PSYCHOLOGY OF TRUST AND SECURITY." *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences* 1.12 (2022): 153-161.
3. Yuldasheva, Sojida. "IA KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G'OYALARI." *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании* 1.4 (2021).
4. Zubaydullaevna, T. N., Zoirovna, Y. S., Ugli, N. B. U., & Kizi, A. M. E. (2023, January). CONSIDERATION OF PSYCHOLOGICAL WAYS IN QUICK MEMORIZATION PROCESS ENGLISH LANGUAGE. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 29-35).
5. Юлдашева Сожида, & Мирзаахматов Абдурахмон. (2023). МОЛОДЕЖНАЯ КИБЕРПСИХОЛОГИЯ. ВРЕД И ПОЛЬЗА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ ДЛЯ СОВРЕМЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 348–354. Retrieved from <https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/453>
6. Zoyirovna, Y. S., & Narziyevna, T. M. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH NAZARIY ASOSLAR
7. Юлдашева, С. З. (2023). ОИЛАЛАРНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ.

8. Юлдашева, С., Бехруз, Н., & Эшматов, У. (2023). КИБЕРПСИХОЛОГИЯ СОВРЕМЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ. ВРЕД И ПОЛЬЗА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 321-326.
9. Nigora, S., Go'zal, Q., & Shoxista, Z. (2023). O 'SMIR QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILANING ROLI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 330-333.
10. Nigora, S., & Munisa, O. K. (2023). SHAXSLARARO MULOQOTDA UCHRAYDIGAN QIYINCHILIKLAR. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 327-330.